

BOLA TARBIYASINING MADANIYATLARARO TAHLILI

Ibragimova Shoirra

Oriental Universiteti

Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi¹

dilshodibragimov420@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola tarbiyasi va odobi haqida soʻz yuritiladi. Unda bola tarbiyasining mohiyati, uning asosiy yoʻnalishlari hamda tarbiya jarayonida eʼtibor berilishi lozim boʻlgan muhim jihatlar yoritib beriladi. Bola tarbiyasi har bir jamiyatda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, u avvalo oilaviy anʼanalar, diniy eʼtiqodlar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy meʼyorlar bilan shakllanadi. Madaniyatlararo tahlil turli xalqlar va madaniyatlarda bolalarga beriladigan tarbiyaviy yondashuvlarni solishtirish va ularning farqlarini hamda oʻxshashliklarini aniqlashga xizmat qiladi. Maqolada bola tarbiyasiga yondashuv ingliz va oʻzbek madaniyatlararo taqqoslangan va ularning oʻziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Giperproteksiya, pedagog, avtoritativ, avtoritar, jamiyat, mutafakkirlar, mutaxassislar, intellektual, individual.

Kirish: Bola tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim va masʼuliyatli yoʻnalishlaridan biridir. Har bir bola - kelajak egasi, millat va jamiyatning davomchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham bolani jismonan sogʻlom, ruhan barkamol, axloqan yetuk va mustaqil fikrlay oladigan shaxs qilib tarbiyalash har bir ota-ona, pedagog va jamiyat zimmasidagi muhim vazifadir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev taʼkidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini taʼminlaydigan maʼnaviyat qoʻrgʻoni bu –

¹ Ilmiy maslahatchi: Oriental universiteti tillar-2 kafedrası professori v.b. filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Radjabov Nasir Nasimovich.

oiladir.”² Shu bilan birga bola tarbiyasida ta’lim muassasalari, ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlarning ham ahamiyati katta.

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi, texnologiyalar va turli madaniy ta’sirlar bolaning dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli bola tarbiyasida an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg’unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bola tarbiyasining mohiyati, uning asosiy yo’nalishlari hamda tarbiya jarayonida e’tibor berilishi lozim bo’lgan muhim jihatlar yoritib beriladi.

Tadqiqotlar metadalogiyasi. Mazkur maqolada qiyoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Qiyoslash metodidan ingliz va o’zbek mutafakkirlarining bola tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarini qiyoslashda foydalanilgan. Statistik tahlil metodi asosida tarbiya haqida yozilgan asarlarda mutaxassislar asar ichida tarbiyani necha foizini ta’limga va necha foizini sog’liqqa bog’laganligi tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Oila, shuningdek, oilada farzand tarbiyasi masalalariga sharq va g’arb mutafakkirlari, mutaxassis pedagoglarining ilmiy merosida katta e’tibor berilgan.

Sharq allomalaridan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg’ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Xusayin Voizi Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy - axloqiy tarbiyalash masalalari o’rtaga qo’yilgan va ularni hal etish yo’llari ko’rsatib berilgan.³

Oilada bola tarbiyasi to’g’risida Alisher Navoiyning tarbiya, axloq, odob, jamiyat, ustoz-shogird, ota-ona va bolalar tarbiyasi haqida eng keng fikrlari jamlangan asari “Mahbub ul-Qulub” asaridir. Unda Navoiy shunday fikrlar beradi: “Insonning ziynati-

² Mirziyoev Sh. M. Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.O’zbekiston, 2017.

³ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o’rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

axloqdir.” Navoiy yaxshi xulqni insonning eng oliy fazilati deb biladi va yomon xulqning oqibatlari insonni halokatga olib borishi alohida ta’kidlanadi.⁴

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida bola tarbiyasi haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo‘lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi.”⁵

Oilada bola tarbiyasi masalasi haqida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning quyidagi so‘zlari ibratlidir. “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta’lim oluvchi o‘quvchini ko‘rmadim.” Uning bu so‘zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitning bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.⁶

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘zining “Kitob al-Jabr va al-Muqobala” asari matematikaning asosiy risolasi hisoblanadi. Unda ilmni o‘rgatish, tartib, mantiqiy fikrlash haqida fikrlar bildirilgan. Al-Xorazmiy mazkur asarida “Ilmni yoshligidan o‘rganish muhim” va “Hisob-kitobni o‘rganish insonni tartibli qiladi”- degan fikrlarni berib ketgan.⁷

⁴ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

⁵ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “ Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

⁶ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “ Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

⁷ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “ Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

Taniqli shoir va pedagog Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida, oilada bolalar tarbiyasi to‘g‘risida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan.⁸

Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosida ham muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola ruhiyatini o‘rganish borasida ko‘plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo‘lib, muayyan pedagogika qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma’naviy - axloqiy barkamol insonni shakillantirish haqidagi g‘oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning “Tadbiri ul manozil” nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangandir.⁹

G‘arb mutafakkirlari ham oila va oilada farzand tarbiyasi haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Bulardan Jan Jak (Jean-Jasques Rousseau), Jon Lokk (John Locke), Benjamin Spok (Benjamin Spok), Jon Boulbi (John Bowlby), Diana Baumrind (Diana Baumrind), Mariya Montessori (Maria Montessori), Uri Bronfenbrenner (Urie Bronfenbrenner), Erik Erikson (Erik Erikson), L. Emmett Xolt (L. Emmett Holt), Penelopa Lich (Penelope Leach) kabi mutafakkirlarning asarlarida bolani ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o‘rtaga tashlangan.

G‘arb mutafakkirlari Jan Jak (Jean-Jasques Rousseau)ning “Ta’lim haqidagi risola” (Emile or treatise on education) asarida “Bolani tabiatga yaqin tarzda erkin rivojlantirish kerak, majburlash zarar” degan fikrlarni bildiradi.¹⁰

⁸ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. – p. 409 - 411.

⁹ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida buyuk mutafakkirlar ta’limoti // “Republican scientific and practical conference “Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education” may 6-7, 2025. p. 409 - 411.

¹⁰ Jean – Jacques R. Emile or treatise on education. Penguin books Ltd. – London, 1991. – 512.b.

Jon Lokk (John Locke) ham o‘zining “Ta’lim borasidagi ba’zi mulohazalar” (Some Thoughts concerning education) asarida “qadriyatlar, axloq va aql bilan bolani tarbiya qilish maktabdan oldin oiladan boshlanishi kerak” degan fikrlarni ilgari suradi.¹¹

G‘arb mutafakkirlaridan yana biri bu Benjamin Spok (Benjamin Spok) ham “Go‘dak va bolalar parvarishi bo‘yicha oqilona maslahatlar kitobi”, (The Common Sense Book of Baby and Child Care) asarida “Ota ona farzandi bilan mehribon munosabatda bo‘lishi, instinktiga ishongan holda tarbiya qilishi kerak” – degan fikrni ilgari suradi.¹²

G‘arb mutaxassislaridan yana biri Diana Baumrind (Diana Baumrind) ham “Bolalarni parvarish qilish amaliyotlari maktabgacha yoshdagi bolalar xatti – harakatlarining uchta modelidan oldingi holat” (Child Care Practices Antecedent Three Patterns of Preschool Behavior) va boshqa ilmiy maqolalarida shunday fikr yuritadi. “Ota-onaning uchta asosiy tarbiya uslubi bor; avtoritar (qattiqqo‘l, buyruqboz), ruxsat beruvchi, avtoritativ (talabchan, mehribon). Eng to‘g‘ri uslub- avtoritativ” - deydi.¹³

Har bir asr o‘zining bilimli va tajribali mutafakkir hamda mutaxassislariga ega bo‘lgan. Jumladan, XX asrda o‘zbek va ingliz mutaxassislari ham farzand tarbiyasi mavzusiga alohida e’tibor qaratib, bu borada turli ijodiy ishlar olib borgan va o‘z fikrlarini bayon etganlar.

Bertrand Russell “Education and the good life” (ta’lim va yaxshi hayot) asarida “Bolaga haddan ortiq qattiqqo‘llik emas, balki tartibli erkinlik berilishi lozim” degan fikrlarni bildiradi.¹⁴

¹¹John Locke. Some Thoughts concerning education. Cambridge University Press: The Educational Writings of John Locke. – Great Britain, 2011. – 288.b.

¹² Benjamin Spok. The Common Sense Book of Baby and Child Care. Duell, Sloan and Pearce. – AQSH, New York City, 1946. – 527.b.

¹³Diana Baumrind. Child Care Practices Antecedent Three Patterns of Preschool Behavior // AQSH: Genetic Psychology Monographs journal. Vol.75(1) 46.b.

¹⁴Bertrand Russell. Education and the good life. A. & C. Boni. – New York, 1926. – 319.b.

XX asrda ijod qilgan A.S.Neill ham tarbiya mavzusida o‘zining “A Radical Approach to Child Rearing” (Bola tarbiyasiga radikal yondashuv) asarida farzand tarbiyasi haqida “Majburlash tarbiyaning dushmani” - deydi.¹⁵

XX asrda ijod qilgan mashhur mutaxassislardan yana biri bu Susan Isaacs bo‘lib u ham tarbiya mavzusiga o‘z hissasini qo‘shgan. U o‘zining “Intellectual growth in young” (Yoshlarning intellektual o‘sishi) degan mashhur asarida “Bolaning intellektual rivoji o‘yin orqali shakillanadi, erta yoshdagi emotsional qo‘llab-quvvatlash eng kuchli tarbiyaviy omildir” degan fikrlarni beradi.¹⁶

R.S.Peters o‘z davrining mashhur mutaxassislaridan bo‘lgan va u ham “Ethics and Education” (Axloq va ta’lim) asarida “Tarbiya - axloqiy ongni shakillantirish jarayoni va axloqiy qadriyatlar bolaga muloqot va misol orqali beriladi” – deydi.¹⁷

Charlotte Mason “Home Education” (Uyda ta’lim) asarida “Tarbiya-odatiy intizom, hayotiy muhit va yaxshi o‘qishga asoslanishi kerak, bola- to‘la shaxs, unga hurmat bilan yondashish zarur”¹⁸ degan bir qancha fikrlarni bildirgan.

XX asrda yashab ijod qilgan sharq mutafakkirlari ham bola tarbiyasi borasida qimmatli fikrlarini ilgari surishgan. Jumladan Abdurauf Fitratning “Oila va oila boshqarish tartiblari” asarida “Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib, xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik

¹⁵Neill A S. A radical approach to child rearing. Hart Publishing Company. – New York, 1960. – 392.b.

¹⁶Isaacs S. Intellectual growth in young children. George Routledge & Sons Ltd. Broadway house, 68-74 carter dane, e.c. – London , 1930. – 384.b.

¹⁷Peters R. S. Ethics and education. Allen & Unwin. – London, 1966. – 334.b.

¹⁸Mason CH. Home education. Kegan Paul, Trench, Trübner, & Co., Ltd. – United Kingdom, 1906. – 426.b.

yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z otalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq" degan fikrlar ilgari surilgan.¹⁹

Abdulla Avloniy ham XX asrda ijod qilgan ijodkorlardan bo'lib, uning eng mashhur "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya va ta'lim haqida "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikr bola tarbiyasining naqadar muhim ekanini bildiradi. Yana shu asarda "Bola tarbiyasi" bo'limida Avloniy shunday deydi "Bola tarbiyasida eng birinchi vazifa ota-onaga yuklanadi" shu asarda "Farzandni aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy tarbiyalash ota-ona zimmasidagi muqaddas burchdir"²⁰ degan fikrlarni bildirgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Binoan alayh yer yuzidagi bacha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar" degan fikrlarni bildirgan.²¹

Munavvarqori Abdurashidxonov "Tarbiyali bola ulug'larni izzat va hurmat qilur. O'zi barobarig'a yaxshi muomala qilur" degan fikrlarni bildiradi.²²

Yuqorida keltirilgan manbalarda XX asrda yashab ijod qilgan ingliz va o'zbek mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqida yozgan manbalarini va bildirgan fikrlarini taqqoslash natijasida quyidagilar aniqlandi.

¹⁹Odob- axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyandalari. Mutolaa. – Toshkent, 2024. – 457.b.

²⁰ Mahmudova Z. X. Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqida buyuk mutafakkirlar ta'limoti // "Republican scientific and practical conference "Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education" may 6-7, 2025. p. 409 - 411. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15495727>.

²¹ Odob- axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyandalari. Mutolaa. – Toshkent, 2024. – 457.b.

²² Odob- axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyandalari. Mutolaa. – Toshkent, 2024. – 457.b.

Ingliz mutaxasislarining fikricha farzand tarbiyasida yoshligidan har tomonlama rivojlantirish, aqliy, jismoniy, ma'naviy va madaniy bilimlarni berish kerak va bolaga haddan ortiq qattiq qo'llik qilmaslik kerakligini aytib o'tadi. O'zbek mutaxasislarining fikricha esa farzand tarbiyasida yoshligidan hurmat qilishga o'rgatadi va salomlashish qoidalari ya'ni kattalarni ko'rganda "Assalomu alaykum" deb to'liq salom berishi kerak degan tarbiyaviy odob-axloqlarni bildirgan. Ingliz mutafakkirlarining yozgan asarlaridan bolalar ko'pincha mehnatga emas tashqi faoliyatga va sportga jalb qilinishi kerakligi va bunda jamoaviy ishlashni ham o'rganishi oson bo'lishi haqida fikrlarni bildirgan. O'zbek mutafakkirlari esa bolalarni kichik yoshidan uy ishlariga jalb qilinishi kerakligi va bolani mehnatga o'rgatish va oilaviy hayotga tayyorlash kerak shu bilan birga ta'limga ham hunarga ham san'atga ham jalab qilish kerakligi haqida fikrlar yuritgan.

Statistik tahlil qiladigan bo'lsak, tarbiya haqida yozilgan asarlardan mutaxasislar asar ichida tarbiyani necha foizini ta'limga va necha foizini sog'liqqa bog'laganligini tahlil qilib ko'rganimizda tahminiy ko'rsatkichlar quyidagilarni ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosini tahlil qilish jarayonida farzand tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratilganini kuzatish mumkin. Alloma tarbiya jarayonini inson salomatligi bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqqan. Uning asarlarida bolaning jismoniy va ruhiy rivoji, sog'lom turmush tarzi hamda tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlar muayyan darajada yoritilgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan bu mavzular Ibn Sino ilmiy merosining taxminan 30 %ni tashkil etishi qayd etiladi. Bu esa allomaning tarbiya masalasiga sog'liqni saqlash va barkamol avlodni shakllantirish nuqtayi nazaridan yondashganini ko'rsatadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning asarlarida bola tarbiyasi masalasi ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Xususan, alloma bolani yoshligidan ilmga, ayniqsa hisob-kitob va mantiqiy tafakkurga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bois, uning asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar muayyan darajada yetakchi o'rin egallagan bo'lib, ushbu mavzular taxminan 45% atrofida ekanligini qayd etish mumkin.

Abdulla Avloniy ijodida ham tarbiya masalasi markaziy o‘rinda turadi. Mutafakkir o‘z asarlarida tarbiyaning jamiyat va inson hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta’kidlab, uni hayot va mamot masalasi sifatida talqin qiladi. Avloniy merosini umumiy tahlil qilish natijasida, uning asarlarining katta qismi, ya’ni taxminan 90 %i tarbiya masalalariga bag‘ishlanganini ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ham tarbiya, axloq, ustoz-shogird munosabatlari va barkamol inson g‘oyasi keng yoritilgan. Mutafakkir tarbiyali, axloqli va ma’rifatli insonni eng oliy fazilatlar sohibi sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan, Navoiy asarlarida tarbiya va unga oid masalalar juda katta ulushni tashkil etib, taxminan 95 %atrofida ekanligini kuzatish mumkin.

Abdurauf Fitrat qarashlarida esa bola tarbiyasi, avvalo, ota-onaning mas’uliyati bilan bog‘liq holda talqin etiladi. U tarbiyaning oiladagi muhit, ota-onaning bilim va madaniy saviyasi bilan chambarchas aloqador ekanini ta’kidlaydi. Fitrat asarlarida tarbiya va ota-onas mas’uliyatiga oid fikrlar muhim o‘rin tutib, ularning salmog‘i taxminan 85 %ni tashkil etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ham o‘z asarlarida va murojaatnomalarida bola tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borish zarurligini ilgari suradi. Uning tarbiyaga oid qarashlari ma’lum darajada keng yoritilgan bo‘lib, taxminan 50 % atrofida ekanligini aytish mumkin.

G‘arb mutafakkirlari ijodiga murojaat qilganda ham tarbiya masalasi muhim mavzulardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, ingliz faylasufi Bertrand Russellning asarlarida bola tarbiyasiga oid fikrlar mavjud bo‘lib, ular taxminan 35 %ni tashkil etadi.

Susan Isaacs bola tarbiyasida intellektual o‘yinlar va bolaning erkin rivojlanishiga alohida e’tibor qaratadi. Uning asarlarida bu masalaga oid fikrlar nisbatan kengroq yoritilib, taxminan 65 % atrofida ekanligi kuzatiladi.

Charlotte Mason tarbiyani o'qish jarayoni va bolaning hayotiy muhit bilan o'zaro munosabati orqali shakllantirish g'oyasini ilgari suradi. Uning asarlarida tarbiyaga oid qarashlar taxminan 35 %ni tashkil etadi.

R.S. Peters esa tarbiya jarayonini asosan axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'lab izohlaydi. Uning asarlarida tarbiya masalalariga bag'ishlangan fikrlar nisbatan kamroq bo'lib, taxminan 25 % atrofida ekanligini qayd etish mumkin.

Natijalar va Muhokama: XX asrda ijod qilgan mutafakkir va pedagoglarning qarashlarida bola tarbiyasi masalasi ilmiy, psixologik hamda ijtimoiy yondashuvlar asosida talqin etilganini ko'rishimiz mumkin. Ular tarbiyani ta'lim, qadriyatlar, intellektual rivoj va ijtimoiy muhit bilan bog'lab, uni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholaganlar. Biroq bugungi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, oilalarda giperproteksiya xolati rivojlanmoqda.

Giperproteksiya - ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish: bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlardan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlardir. Bunday odatga chalingan ota-onalar, "jonini jabborga beruvchilar" o'zlari bilmagan holda farzandlarini rivojlanishiga va farzandlarining kelajagiga yomonlik qilyotkanliklarini sezmaydilar.²³

Bularning natijasida bola qiyinchiliklarga dosh berolmaydigan, ozgina to'siqqa duch kelsa orqaga chekinadigan yoki ota-onasi va yaqinlaridan yordam kutadigan, biror ishga toqati yo'q, tengdoshlari va jamoada o'zini tuta olmaydigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola ulg'aygach tantiq, erka bo'lsa o'zini aytganini qildiradigan va boshqalarning fikrini inobatga olmaydigan bo'ladi. Shu bilan birga o'zidagi fikr ham tayinli bo'lmagani

²³Bo'ronova H.A. Oilada bola shaxsini shakllanishida tarbiya usullarining ahamiyati // Scientific journal – 2021. p.1193. www.scientificprogress.org.

uchun uni tenqurlari davrasida o'z o'rnini bo'lmaydi. Kelajakda ham jamoalarga ish yuzasidan yoki do'stlar davrasiga ham qo'shila olmaydi.

Bolaga yoshligidan kichik-kichik tartib qoidalarini o'rgatmasdan senga hammasi mumkin deb ulg'aytirish unga kelajakda "mumkin emas" degan so'zni qabul qilishini qiyin qilib qo'yadi. Shunday ekan tarbiya jarayonidagi me'yorga alohida e'tibor berilishi kerak. Tarbiyada o'ta qattiq qo'llik ham, o'ta e'tiborsizlik ham o'zining salbiy natijasini beradi. Zero, "u mumkin emas, bu mumkin emas" degan kuchli to'siqlar yoki kuchli e'tibor, har bir qadamini nazoratga olish ham to'g'ri tarbiya hisoblanmaydi. Agar shunday yo'sinda tarbiyalansa, farzand odatda o'zi mustaqil fikr bildiray olmaydigan, mustaqil qarorlar chiqarolmaydigan bo'lib, lekin salga jahli chiqadigan va ko'p narsalardan norozi holda ulg'ayadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asrdagi Sharq mutafakkirlari tarbiya masalasiga ko'proq axloqiy kamolot, milliy va diniy qadriyatlar hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat nuqtayi nazaridan yondashganlar. G'arb mutafakkirlari esa tarbiyani shaxs erkinligi, psixologik rivoj va ilmiy-pedagogik metodlar asosida talqin qilib, uning amaliy va individual jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Ko'rinadiki, farzand tarbiyasi har bir jamiyatda taraqqiyotining eng muhim va ajralmas omillaridan biri sifatida qaralgan. Har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishi, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila – bu bolaning birinchi maktabi, ota-onaning muomalasi, dunyoqarashi, axloqi va hayotga bo'lgan munosabati farzand xarakteriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tarbiya bolaning nafaqat aqliy rivojlanishini, balki uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlaydi. Mehr-muhabbat, hurmat, mas'uliyat, sabr-toqat va halollik kabi fazilatlar aynan tarbiya jarayonida shakllanadi. Agar tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, bu bolaning kelajakdagi hayotida turli muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, farzand tarbiyasi faqatgina oilaning emas, balki maktab, jamiyat va davlatning ham umumiy vazifasidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik bolaning barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi. Tarbiya jarayonida milliylikga tayanish esa yosh avlodda vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. Shunday ekan, bugungi

kunda farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish kelajak jamiyatining poydevorini mustahkamlash demakdir. Barkamol, bilimli va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash har bir ota-ona va har bir jamiyat a'zosining muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Avloniy A.** Turkiy guliston yoxud axloq. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent, 2018. – 96.b.
2. Bo'ronova H.A. Oilada bola shaxsini shakllanishida tarbiya usullarining ahamiyati // Scientific journal, 2021. – p.1193. www.scientificprogress.uz
3. **Benjamin Spok.** The Common Sense Book of Baby and Child Care. Duell, Sloan and Pearce. – AQSH, New York City, 1946. – 527.b.
4. **Diana Baumrind.** Child Care Practices Anteceding Three Patterns of Preschool Behavior // AQSH: Genetic Psychology Monographs journal. Vol. 75 (1) 46.b.
5. **Fitrat A.** Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Cho'lpon. – Toshkent, 2019. – 144.b.
6. **Isaacs S.** Intellectual growth in young children. George Routledge & Sons Ltd. Broadway house, 68-74 carter dane, e.c. – London, 1930. – 384.b.
7. **Jean Jacques R.** Emile or treatise on education. Penguin books Ltd. – London, 1991. – 512.b.
8. **John Locke.** Some Thoughts concerning education. The Educational Writings of John Locke. – Great Britain Cambridge University Press, 2011. – 288.b.
9. **Mason CH.** Home education. Kegan Paul, Trench, Trübner, & Co., Ltd. – United Kingdom, 1906. – 426.b.
10. **Mirziyoev Sh.M.** Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston – 2017.
11. **Mahmudova Z.X.** Oila tushunchasi va uning mohiyati. Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqida buyuk mutafakkirlar ta'limoti // "Republican scientific and practical conference "Problems and solutions of the competency-based approach in preschool education" may 6-7, 2025. – p. 409-411.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15495727>.

- 12. Neill A S.** A radical approach to child rearing. Hart Publishing Company. – New York, 1960. – 392.b.
- 13. Odob- axloq kitobi.** Jadid adabiyoti namoyandalari. Mutolaa. – Toshkent, 2024. – 457.b.
- 14. Peters R. S.** Ethics and education. Allen & Unwin. – London, 1966. – 334.b.
- 15. Russell B.** Education and the good life. A.& C. Boni. – New York, 1926. – 319.b.